



## TAXOR O'ZBEK SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Qardash Bashir Ahmad

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6503904>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 18-aprel 2022

Ma'qullandi: 25- aprel 2022

Chop etildi: 27- aprel 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Taxor, tovush-fonema, arab-fors tillari, harf, qisman cho'ziqlik, talaffuz me'yorlari.*

Taxor viloyati bu - Afg'onistonning shimoliy-sharqida joylashgan uzoq tarixga ega bo'lgan viloyatlardan biridir. Bu viloyatda Afg'onistonning ko'pgina viloyatlari singari o'zbek millatiga mansub fuqarolar ko'p (deyarli 70%) yashaydi. Ushbu shevada talaffuzda undosh tovushlarning almashish hodisasi ko'p uchraydi.

O'zbek xalq shevalaridagi undoshlar tovushlar adabiy tildagi talaffuzida aksaryat hollarda mos keladi. Taxor viloyati shevasida esa hozirgi adabiy tildagi ayrim undoshlar qo'llanilmaydi. Jumladan, *f* undoshi ana shunday tovushlar sirasiga kiradi. O'zbek adabiy tilidagi *f* undosh tovushi Taxor o'zbek shevasida *p* shakilda ishlatiladi.

*B* tovushi janragli undosh tovush bo'lib, lablarning bir-biriga jipslashuvidan hosil bo'ladi. Ushbu tovush talaffuzda *p*, *m*, *v* undosh tovushlariga o'tishi ham ko'p kuzatiladi: *Ova/avamlar kesin šölär bilädilär üezi, pičäq/pičoxti äpkeŋinr qajrab*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Afg'onistonning Taxor viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbeklar shevasidagi undoshlarning fonetik tarkibi, ularning to'liq va qisman o'xshashliklari, qo'sh undoshlarning ifodalanishi kabi hodisalar tahlilga tortilgan.*

*keläijn, xätti pitib ke, žöyälän bızau; tobildı, minčä kü:b gäbläjdı. žörä bojdin xät pitip žu:vardı, žöyälän telfin topıldı, bilerdi gablari kü:b ve:zi.*

*P* tovushi. U jarangli *B* undoshining jarangsiz jufti bo'lib, shevadagi *p* arab tilidan kirib kelgan so'zlar tarkibida uchraydi. Masalan, **pikir** qimästin gapirgandi ve:zi šundaj bölädi, **paqat** men borsamma?, **17 pisat** nimirasi bärekäj, minčä **naparya** am non žetqizip bölämä? *v*onya šönčä **pärq/pärx** qimajdi kabilar. Bunday so'zlar arab va fors tillaridan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarga mos keladi.

*T* harfi. Bu jarangli tovush bo'lib, Taxor o'zbek shevasida so'z oxirida tushib qoladi, Masalan: **tör** näpir keptti, **dos** bösä am, **šölärädäj**, **yiš** čixsin tom täjläjmis xöppä bolam.

*J* harfi sirg'lovchi undosh tovushi bo'lib, ayrim so'zlar takibida *U* tovushi o'rnida ishlatiladi. *žüzüm(uzum)lär pišiptti, kelindi qöliyä žüzük soldı kižou.*



č harfi. ž tovushining jufti bo'lgach va jarangsiz til oldi harflardan sanaladi. So'z o'rtasi va oxirida č tovushi kelganda, š undoshiga o'tish hodisasi eshtiladi. Masalan: *čäqäläq ošqapti, iěškilär sottim bāziryā, sū:di išsin söl borabīs, üšti iěški oldim, bir žer am bösā sotaman, qōšqer qānčā berāsis boj ākā?*

X undosh harfi ayrim so'zlarda Q tovushiga o'tish hodisasi ko'p uchraydi. *xälāmdi žöxlāb keldim bormalir, dārāqliryā čimčixlir qōndi, vāxt keldilär kü.*

R harfi o'ziga qadar ayrim xususiyatlarga ega, so'zlarning o'rtasi va oxirida chegarasiz holda ishlatilishi ko'p. A) so'z o'rtasida kelganda, ba'zan orttiriladi: *ārriydi bošidān keldim, qārri kāmpirlir xūš ixtlot bōlādi*; B) so'z oxirida ishlatilganda, L undoshiga almashadi: *dorbozani zānžil(zanjir) qi, šülir minān bösāy jāxši, zāril işlerdi vāxtiyi qil*; C) ayrim holatlarda so'z o'rtasida tushib qoladi: *odamlani ažab xujlāi bo, qājsi nesā bakarma? qalamdi begin, begā žoxti*. Ayrim so'zlarning o'rtasida ishlanganda, o'xshashlikka uchrashuvi asosida L undoshiga o'tadi. Masalan: *minčā qimillādiŋ ūkā, tellāb pil topsaŋ, ājāyindi bollab qōj.*

S tovushi. Bu tovush til oldi undoshlari tilning old qismi yo'qori tish yoki milkka tomon harakat qilishi natijasida paydo bo'lgach, Taxor o'zbek shevasida boshqa fonemalar singari ž va č harflariga o'tadi. *žāüčilär keŋir, čapča bošlardi işi šundajin bōlādi, čāčīŋdi tarasaŋ buladi ku, āji bir tör ser büydāj čāčip kelājin.*

G' harfi. Bu tovush janrangli til orqa undoshi hisoblanadi, Taxor o'zbek shevasida u tovushi o'rnida qo'llanadi. Albatta, bu fonetik qoida asosida γ harfiga o'tadi. Masalan: *bi qanča ou:r ekān? Buvoz ināk semis bōlādi, bū:māyın velib qoladi, sovma ve:zi šō odam?*

Q harfi. Bu tovush portlovchi jarangsiz undosh bo'lib, tilning orqa qismida paydo bo'ladi. Taxor o'zbek shevasida esa so'z oxirida kelganda γ fonemasiga almashadi. *Oriy / āriyden suv kemājdiekāj, bi dašlaryā žantay kōb, temir tārāy minān čāč tārājdi, mol söyič pichag'di ber.* Ayrim so'zlarda X, ba'zi hollarda K undosh tovushlariga o'tish halati ham kuzatiladi. Masalan: *čōxti kōb soŋlar sandaliya, žöyāriyā čāxmāx uraptti, šölārdi köprāk beriŋ.*

G fonemasi. Bu tovush yumshoq tanglay bilan til orqa qismining bir-biriga yaqinlashuvdan hosil bo'ladi. Bu jaranli undosh tovush, shevada K jangsiz undoshi o'rnida ishlatiladi. Masalan, Taxor o'zbek shevasidan e'tibor qaratamiz: *kuraglardi beriŋ qor kurajmīs, kökrāglāriyā toš bosib žiryān odamlar bilār.*

N tovushi, jarangli sonor tovush sanalgan bu undoshning hosil bo'lishida til, tish va burun ishtirok etadi. Bu tovush sonor L fonemiga o'tish hodisasi Taxor o'zbek shevasida ko'p uchraydi. Misol uchun: *minčā am millāt bōlāmā vezi, millāt qisāŋ bermāyin edi.* Ayrim holatlarda esa D harfiga moslashib talafuz etiladi. *Kū:nnis kūnyā har işyā borsajs bōmājmā? qana körājnik nima bōlār ekāj.*

L fonemasi. Bu sonor tovush bo'lib, til oldi tovush sanaladi. Bu tovush og'zaki nutqda fe'l so'z turkumiga oid ayrim so'zlar tarkibida tushib qoladi. Masalan: *qiyān işlāŋisni ayting qana! Biltir borib kegan edi vali boy uyladan, kedin qana nima dediekay? bolalanī ketiriŋ davo berājin.* Ba'zan so'zlar o'rtasida ishlatilganda N bilan almashadi. Misol: *qouvnnarīmīs pišiptti keliŋislār žeyāni, kāttā ākānnerdin kum kelādilir? qomnardi bi töjyā ājtmāsāŋis bormajman.*

**Undosh tovushlardagi o'xshashlik hodisasi:** Bu hodisa undoshlarning yon



tovush ta'sirida yumshalishi, jarangli va jarangsizlanishi, paydo bo'lish o'zgarishlarda vujudga keladi. Bu hodisa ikki turga bo'lish mumkin: a) to'liq o'xshashlik; b) qisman o'xshashlik.

1. **To'liq o'xshashlik:** bunday hodisa so'zlarda oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovush o'z xususiyatini o'zgartiradi va oldingi o'xshash tovushga almashadi. Bu xususiyat Taxor viloyatidagi o'zbek qipchoq shevasida quyidagicha kuzatiladi. **T** tovushini **d** harfiga o'tish hodisasi: *bī kītpī v<sup>o</sup>qīptī žāmilā*, dōslārini kōripdi bozarga, tūšdi vaxti bōpti.

**D** harfi sonor **N, L** tovushlariga o'tish hodisasi: *žimirqālārdi olli gulnar xala, velli boymirad polvon, qōš ājdāb kelli odirdan deqān, ākā iš qip bōlli, žjnnāmā žotaj žōyāt! bindājin odamlar nonnaj.*

2. **Qisman o'xshashlik:** to'liq o'xshashlik singari bu shevadagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Masalan: *ājtsā bōlādi xu minčā ozar berādi mardīmdī, siryāni qūlāyiyā tayti, suv ijssā bōlāmā? Sūtti ištikū bī bāčā! Ānāvi: bilā kelī u<sup>o</sup>ltīramīs, e:rtā tōyā ājtqān/ājtyān.*

**Murakkab o'xshashlik:** so'z tarkibidagi ikki undosh talaffuzda o'zgarib, bir shaklga yoki boshqa ko'rinishga o'tib qoladi. Masalan, Taxor viloyatdagi o'zbeklar nutqida quyidagicha ifodalanadi: *ājtip ke ākāmdī bozardin, otamdī bilāsi boryin, kītoptī oqimāsālī nimā qilāsālī mižyilāb, otam bozardin kepti.*

**Noo'xshashlik:** bu hodisa Taxor o'zbeklari og'zaki nutqida quyidagicha qo'llanadi: *biran odamdi xaltasi ko'b joman bōlādi, parvona topkanini tūjādi xāltāyā sop, zārīl gāblārdi ājtīlī, ūštāyinā bolam bo vezi, bir sis minān iš bōmājdi.* Umuman, Taxor o'zbeklari shevasida bunday hodisalarni ko'plab uchratish mumkin.

**Qo'sh undoshlarning qo'llanishi.** Fonetikada bu hodisa bir so'z tarkibida ikkita bir xil undoshning juft holda kelishini ifodalaydi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili va shevalarida, ayniqsa, Taxor o'zbek shavasida ko'p kuzatiladi: *oppa kelī non žijmis, ollattma meni havsalam žōx.*

Xalq so'zlashuv tilida ularning hosil bo'lishi turli xil fonetik o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu hodisa Taxor shevasida ham ko'p uchraydi: *āčiq- čūčiq nesāni žemālī, toqis odam bōsam bakar emās, sākis odam kelādi j:irta, čāqān kesālī bōmājmā?*

Xulosa qilib aytganda, Taxor o'zbek shevasi o'ziga xos fonetik qurilishiga ega. Bu bir necha omillar bilan bog'liq. Jumladan, u yerda istiqomat qiluvchi o'zbeklar shevasiga afg'on, fors-tojik tillarining ta'siri, ularning o'zbek adabiy tilida uzoq vaqtlar muloqot qilmaganliklari va hakozi. Biz shularni inobatga olib, "Taxor viloyatida yashovchi o'zbeklar shevasini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish kerak"- degan xulosaga keldik..

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialetologiyasi. Toshkent: Navro'z nashriyoti. 2016-yil.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim nashriyoti. 2021-yil.
3. Ishonch Z. O'zbek tili grammatikasi. Kobul: Xuroson bosmaxonasi. 2014-yil.
4. Ibrohimov C. O'zbek tilining Andijon shevasi. Fan nashriyoti. 1967-yil.
5. Oltoy N. O'zbek tili so'zligi. Moliziyo: Saqofat intishoroti. 2007-yil.
6. Raximov. C. O'zbek tili Surxandaryo Shevalari(Fonetika, Leksika). Toshkent: Fan nashriyoti, 1985-yili.